

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

5/S-son (4-jild)

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ S/5 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Ulashova Sevinch Ulash qizi</i> CHIG'ATOY ULUSI BOSHQARUVI TARIXIDAN .....	8-13
<i>Gulmatov Umarali Xabibulla o'g'li</i> "XITOIY-O'ZBEKISTON-QIRG'IZISTON" TRANSPORT YO'LAGI TASHKIL ETILISHIDA O'ZBEKISTON ISHTIROKINING TARIXIY AHAMIYATI .....	14-18
<i>Dexkanov Narimon Burxonjonovich</i> ISMOIL SOMONIYNING BOSHQARUV TIZIMI VA QO'SHIN ISLOHOTI .....	19-22
<i>Saparbayeva Aziza Asror qizi</i> SURXONDARYO HUDUDINING BRONZA DAVRI MANZILGOHLARIDAN ANIQLANGAN ZARGARLIK BUYUMLARI TIPOLOGIYASI .....	23-28

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Muradullayeva Nafisa Dilmurad qizi</i> XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYALARI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....	29-34
<i>Utkirov Anvar Utkirovich</i> KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIVERGENTSIYANI TIZIMLI TASHKIL ETISH TENDENSIYALARI .....	35-44

### 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Madraximov Jahongir Botirjon o'g'li</i> GLOBALLASHUV JARAYONLARINING YOSHLAR MA'NAVIY HAYOTIGA TA'SIRINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI .....	45-52
<i>Rahmonova Feruza Bahromjon qizi</i> XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH – TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKLARDAN ASRASHNING SAMARALI YO'LI SIFATIDA .....	53-58
<i>Aripova Zulfiyaxon Salijanovna</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA FALSAFIY FANLARNI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI .....	59-64

### 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Nishonova Xurshida Yusufjanovna</i> SHE'RIYATDA OBRAZ MUAMMOSI .....	65-73
<i>Hikmatova Nigina Akmalovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA AGORONIMLARNING ONOMASTIK KATEGORIYA SIFATIDAGI MILLIY-LISONIY BELGILARI .....	74-79
<i>Sultanova Xurshida Uktamjanovna</i> PUBLITSISTIK USLUB VA UNING TADQIQI (XURSHID DAVRON IJODI MISOLIDA) .....	80-86

*Asqarova Dilbarxon Asqarjon qizi*  
XRONOLOGIYA VA IJOD: INGLIZ VA O'ZBEK MA'RIFIY DRAMALARINI  
QIYOSIY O'RGANISH ..... 87-91

*Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna, Mahmudova Nargiza Alimovna*  
J. FAULZNING "KOLLEKSIONER" ROMANIDA RIVOYAT USULLARINING O'ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI ..... 92-96

*Miraxmedova Zilola Erkinovna*  
EVFEMIYA TIL FENOMENI. EVFEMIZMNI O'RGANISH TARIXI ..... 97-101

### 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*Абдуолимов Уринбой Худобердиевич*  
ЎЗБЕКИСТОН ВА ТУРКИЯ ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ ВА УНИ ТАШКИЛ  
ЭТИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ: ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ ..... 102-110

*Алишаев Собир Турсунбоевич*  
СУД ҲУҚМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИДА СУД МАЖЛИСИ БАЁННОМАСИНИНГ  
ПРОЦЕССУАЛ ВА ИСБОТЛОВЧИ ФУНКЦИЯЛАРИ ..... 111-119

*Muhammadiyah Bahromjon Qodirjon o'g'li*  
OTALIKNI FAKTINI BELGILASH ISHI (BOTIR QODIROV VA JO'RAYEVLAR  
OILASI MISOLIDA) ..... 120-124

*Maxmudova Hurmatxon Muxtorovna*  
KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI TAHLILI: QONUNCHILIK VA  
AMALIYOT ..... 125-135

### 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Rashidova Oynisa Xusniddin qizi*  
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL  
ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH ..... 136-140

*Bakiyeva Xayotxon Abduganiyevna, Ergasheva Roziya Bahodir qizi*  
DARSLARDA ZAMONAVIY TA'LIM USULLARIDAN FOYDALANISH ..... 141-146

*Ганпаров Захид Ганпарович*  
ИССЛЕДОВАНИЕ НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ СИНХРОНИЗАЦИИ ДВИЖЕНИЙ В СИНХРОННОМ  
ПЛАВАНИИ ..... 147-153

*Qurbonova Dilafruz Toshturdiyevna*  
TALABA-QIZLARGA TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSI ASOSIDA MA'NAVIY-AXLOQIY  
QADRIYATLARNI O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULI ..... 154-159

**Received:** 10 July 2024  
**Accepted:** 15 July 2024  
**Published:** 25 July 2024

*Article / Original Paper*

## **USE OF MODERN EDUCATIONAL METHODS IN LESSONS**

**Bakieva Khayotkhan Abduganievna**

Senior Lecturer at Namangan Engineering and Construction Institute

**Ergasheva Rosia Bahadir kizi**

Student of Namangan Engineering and Construction Institute

**Abstract.** In the article, as a result of using the question-and-answer method in classes, the process of developing intellectual abilities is directly supported by students, and it is correct to analyze comprehensive topics by passing few stages. and it is said that the assessment of students' knowledge on the subject in the test method will help the teacher to determine the mastery indicators of all students in a short period of time.

**Key words:** new modern teaching process, question-and-answer method, multiple-choice tests.

## **DARSLARDA ZAMONAVIY TA'LIM USULLARIDAN FOYDALANISH**

**Bakiyeva Xayotxon Abduganiyevna**

Namangan Muhandislik-qurilish instituti katta o'qituvchisi

**Ergasheva Roziya Bahodir qizi**

Namangan Muhandislik-qurilish instituti talabasi

**Annotatsiya.** Maqolada savol-javob usulidan darslarda foydalanish natijasida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoni o'quvchilar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvvatlanishi, keng qamrovli mavzular kam bosqichlarni o'tish orqali tahlil qilinishi to'g'risida hamda test usulida talabalar bilimini o'tilgan mavzu bo'yicha baholanishi qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini aniqlanishiga yordam berishi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** yangi zamonaviy ta'lim berish jarayoni, savol-javob usuli, javobi qo'yiladigan testlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI5Y2024N21>

**Kirish.** Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish borasida olib borilayotgan islohotlar tahsinga sazovordir. Oliy ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo'shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish, sohaga ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy qilish hozirgi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi

Respublikamizda bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar ta'lim sohasida ham ma'lum yangiliklar, tubdan o'zgarishlar bo'lishini taqazo etadi. Haqiqatdan ham, chuqur bilimli,

keng dunyoqarashli komil shaxsni tarbiyalash masalasi pedogoglardan yangicha ishlash printsiplarini amalga oshirishni talab qiladi va katta ma'suliyat yuklaydi.

E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, bugungi kunda o'rganish, bilim olish va uni rivojlantirish zaruriy extiyojga aylanmoqda, bu esa, o'z navbatida bizning intellektual hayotimizni yanada boy va dinamik bo'lishiga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Xozirda texnologik taraqqiyot jadal rivojlanmoqda, faoliyatning yangi yo'nalishlari paydo bo'lmoqda, rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari o'zgarib bormoqda, ko'plab kasblar yo'q bo'lib ketmoqda, yangilari paydo bo'lmoqda va biz tez o'zgarib borayotgan jamiyatning ushbu sharoitlariga moslashishga majburmiz. Yaqin yillar mobaynida harakatlarimiz qanday qilib "raqamli" bo'lib qolganini o'zimiz ham payqamadik.

Yangi bilim sohalari paydo bo'lishi bilan birga yangi ta'lim texnologiyalari ham paydo bo'ladi. Ta'lim muntazam ma'ruzalar formatidan loyihaga asoslangan va muammoli usullarga o'tmoqda. Bu shuni anglatadiki, bugungi kunda o'quv jarayonida ish yanada ochiq bo'lib bormoqda, o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi, talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar maydoni kuchaymoqda. Jamoada ishlash, ishlarni ko'rib chiqish, muayyan muammolarni hal qilish uchun butun loyihalarni yaratish - bugungi kunda dolzarb masalalardir.

Ta'lim muhitiga interfaol usullarning joriy etilishi bilim olish jarayonini jiddiy o'zgartiradi. Zamonaviy maktab o'quvchisi (talaba, har qanday talaba) onlayn muhitdan foydalangan holda vizual ma'lumotni yaxshiroq qabul qiladi. Talaba bir yarim soat davomida o'qituvchining ma'ruzasini tinglash o'rniga, YouTubeda video tomosha qilishni, norasmiy va qiziqarli muhitda deyarli bir xil miqdordagi ma'lumotlarni o'rganishni afzal ko'radi va ba'zi materiallarni talabalarga taqdim etmasdan tushuntirish mumkin va qiziqroq.

Globalashuv barcha sohalarga, jumladan, ta'limga ham to'liq kirib bordi. Bundan kelib chiqadiki, innovatsiyalarni idrok etish va qabul qilish, tillarni o'rganish, harakatchan bo'lish va boshqa madaniyatlarga sabr-toqat qilish qobiliyati alohida ahamiyatga ega.

STEAM (S-science, T-technology, E-engineering, A-art, M-mathematics (maths) bu qisqartma: S-fan, T-texnologiya, E-muhandislik, A-san'at, M-matematika (matematika) degan ma'noni anglatadi. Ushbu bilim sohalari majmuasi (fan, texnologiya, texnika, ijodkorlik, matematika) birgalikda ushbu texnologiyaning uslubiy asosini ifodalaydi. Buning ma'nosi shundaki, maktab o'quvchilari ushbu fanlarni ba'zi amaliy vazifalar, loyihalar, masalan, robototexnika, dasturlash, qurilish, dizayn va hokazolar doirasida o'rganadilar.

Mashhur LEGO kompaniyasi LEGO ta'lim loyihasini yaratdi, unda bolalar nafaqat konstruksiya to'plamini yig'ishga, balki SPIKE Prime (kichik robot) deb nomlangan butun loyihani yaratishga taklif qilinadi. U ustida ishlash jarayonida bolalar ham dizayn, ham dasturlashni o'rganadilar. Kompaniya tadqiqotlariga ko'ra, hozirgi talabalarning 65 foizi ushbu mutaxassisliklar bo'yicha ishlaydi, shuning uchun STEAM texnologiyalari hozirda o'quv jarayoniga faol kiritilmoqda.

Bu qisqartma ilgari ijodiy mezonni hisobga olmagan holda STEM deb atalgan. Biroq, keyinchalik San'at mezoni qo'shildi, bu aniq fanlarda ham ijodiy yondashuv va ijodiy fikrlash talab qilinishini ko'rsatdi. Ushbu tizim sxematik tarzda quyidagicha ifodalanishi mumkin: savol-munozara-loyiha-qurilish-sinov-ishlab chiqish

Umuman olganda, STEAM ta'lim texnologiyasi ko'proq amaliyotga qaratilgan bo'lib, u bolalar va o'smirlarga olingan bilimlarni darhol qo'llash mumkinligini va hatto qo'llash kerakligini tushunishga yordam beradi. Metodika, shuningdek, talabalarga ochiqlik, o'z pozitsiyasini ifodalash, muloqot qilish va jamoada ishlash, ijodiy va innovatsion mahsulotlar yaratish imkonini beradi.

Biz sinfda qancha o'quvchilar kam bo'lsa, material shunchalik yaxshi o'zlashtiriladi va esda qoladi, chunki kichik guruhlarda o'qituvchi tomonidan nazorat yaxshi bo'ladi, bolalarda gapirishga, hazil o'ynashga vasvasalar kamroq bo'ladi, talabalardan uy vazifalari haqida so'rashga vaqt ko'p bo'ladi degan fikrga o'rganib qolganmiz. Biroq, mana bir fakt: Singapurlik talabalar, har bir sinfda 40 ga yaqin talaba bilan, funktsional savodxonlik (matematika va tabiatshunoslik) bo'yicha dunyodagi eng kuchlilar qatoriga kiradi. Qolaversa, bir-biridan unchalik farq qilmaydigan Singapur maktablarida o'qituvchilar tarkibi yosh. Buning siri ta'lim texnologiyasida. Butun o'quv jarayoni zamonaviy ta'lim texnologiyasining mohiyatini ifodalovchi tuzilmalardan iborat. Uning asosiy tamoyillari: muloqot, jamoani shakllantirish, rollarni o'zgartirish, o'qituvchi rolini o'zgartirish (u o'quv jarayonining o'ziga xos moderatori, algoritmnii bajarish vazifasini bajaradi), o'quvchilar o'rtasidagi sheriklik, ularning hamkorligi.

Quyidagilar 250 ga yaqin Singapur metodlari orasidaneng mashhurlari ro'yxati:

Teambuilding

Rally Robin

Round Robin

Clock Buddies

Hi-Five

Mix Pair Share

Corners va boshqalar.

Yana bir mashhur texnologiyalardan biri – AGILE. Ushbu ta'lim texnologiyasi o'tgan asrning o'rtalarida ishlab chiqilgan, ammo uning gullab-yashnashi Scrum texnologiyasi va Agile Manifestining otasi bo'lgan Jeff Sazerlendning faoliyatiga to'g'ri keladi. Dastlab, texnologiya IT sohasida ko'proq ishtirok etgan bo'lsa, keyinchalik u turli sohalarga, jumladan, ta'limga ham kirib bordi. Bu erda biz Agile texnologiyasining bir nechta tamoyillarini ajratamiz:

O'zaro ta'siri. Odamlar va ularning o'zaro ta'siri ko'pincha mashg'ulotlar davomida ko'proq e'tibor qaratiladigan vositalar va jarayonlarga qarama-qarshidir. Masalan, siz maktabda yoki universitetda o'qituvchilar uchun jurnalni to'g'ri to'ldirish, o'quv dasturini yozish, hammani kerakli joyga joylashtirish va talabaga e'tibor bermaslik muhimroq ekanligini aniq payqadingiz, ammo bularning barchasi shunchaki vositalar. Ta'lim moddiy va rasmiy jarayonlarni o'rnatish orqali emas, balki o'qituvchi va o'quvchining samarali o'zaro ta'siri orqali haqiqiy qiymat keltiradi.

Haqiqiy mahsulot. Sinovga urg'u berish, testlar va mustaqil testlarda yaxshi baholarning ustuvorligi, rasmiy yo'naltirilgan yondashuv Agile texnologiyasini rad etadi. Talabalarni doimiy ravishda sinab ko'rish o'rniga, siz ma'lum bir mavzu bo'yicha muhokama yoki suhbat o'tkazishingiz mumkin. Nazoratning bunday shakllari davomida o'qituvchi o'z o'quvchilarining bilimlari to'g'risida ko'proq ma'lumot oladi va shunga mos ravishda unga keyingi ta'lim yo'nalishini qurish osonroq bo'ladi.

Jamoa hamkorligi. O'qituvchilar qanchalik tez-tez talabalar uchun hamkorlik loyihalarini yaratadilar? Umuman olganda, o'qituvchilar bir-biri bilan boshqa mavzular haqida emas, balki

ta'lim jarayoni haqida qanchalik tez-tez muloqot qilishadi? Ammo o'qituvchilar bir-birining resurslaridan foydalangan holda ta'lim jarayoniga jiddiy hissa qo'shishlari mumkin.

Nega geografiya va matematikadan aralash dars o'tmasligingiz kerak? Mamlakatimizdan MDH davlatlarigacha bo'lgan masofani hisoblash, geometrik xaritani qurish, Moskvadan boshqa poytaxtlargacha bo'lgan masofaning funksiyasini yaratish va hokazo. Ikki yoki undan ortiq sohalarning kesishmasida juda qiziqarli g'oyalar yaratiladi, buning uchun o'qituvchilar o'rtasida uchrashuvlar, o'qituvchilar kengashlari va boshqalardan ko'ra bir oz boshqacha muloqot qilish platformalarini yaratish kerak;

O'zgarishlarni qabul qilishga tayyorlik.

Moslashuvchanlik Agile-ning eng muhim printsipi bo'lib, barcha o'zgarishlarga javob berishga imkon beradi. Ha, albatta, sizga strategik maqsad kerak, ammo qisqa muddatli rejalardan chetga chiqish odatiy holdir. Ish dasturlariga qat'iy rioya qilish talabalarning haqiqiy ehtiyojlarini e'tiborsiz qoldirishi mumkin. Agar o'quvchilarga Present Perfectni tushuntirish uchun qo'shimcha dars kerak bo'lsa, o'qituvchi rejadan biroz chetga chiqib, zamon tahliliga bag'ishlangan dars tashkil qilishi mumkin. Bu talabalarga faqat foyda keltiradi, chunki bu asosiy narsa.

**Muhokama.** Umuman olganda bu kabi zamonaviy texnologiyalar asosida ta'lim berish jarayoni - biron bir maqsadni ko'zlab, reja asosida nazorat qilish orqali amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, uning maqsadi o'quvchilarning bilish faoliyatini o'stirish, ularni faollashtirishdir.

Darslarda savol-javob usulidan foydalanilsa, intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoni o'quvchilar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvvatlanadi, keng qamrovli mavzular kam bosqichlarni o'tish orqali tahlil qilinadi hamda bu usul o'rganishning faol yo'li bo'lib, o'quvchilarning dastlabki bilimlarini safarbar etishlari uchun yaxshi imkoniyat tug'iladi [2].

O'qituvchi bilimlarni dalil, tushuncha, tamoyillar va usullar shaklida beradi hamda tafakkur yo'nalishiga ta'sir ko'rsatish uchun savollar beradi, o'quvchilardan javoblar va munozaralar kutadi. Bunda barcha didaktik tamoyillar inobatga olinishi mumkin. Bu eng ko'p qo'llaniladigan usul bo'lib, unda asosan anglash va «munosabatlardagi tafakkur» rivojlantiriladi.[1,89]

Savol qo'yishdan asosiy maqsad – o'rganayotgan mavzu bo'yicha ishtirokchilarni o'ylashga undashdan iboratdir. Savolning effektiv qo'yilishi ishtirokchilarni mavzu bo'yicha yanada chuqurroq o'ylashga, taklif etilgan kontseptsiyalar mohiyatini tushunishga undaydi.

Savollar - -mavzu bilan tanishtirish, rasmiy ma'ruzaaning samarasini oshirish, aqliy xujumni rag'batlantirish, diskussiyaga qo'shimchalar kiritish maqsadida beriladi.

Talabalarga oldindan ma'ruza matnlari berilganligini, mavzu maktab dasturlarida ham o'rganilganligini va dars davomida talabalar adabiyotlardan foydalanishlari uchun imkon berilishini inobatga olsak, savol-javob usulida o'tiladigan dars talabalarni izlanishga undaydi. Savollarni uzviyligi va ko'proq hayotga bog'langanligi hamda qiziqarliligi katta ahamiyatga ega bo'ladi. [2,75]

Masalan, "Organik kimyo" fanidan "Uglevodlar" mavzusini o'tishda quyidagi tartibdagi:

1. Nima uchun bunday moddalar "Uglevodlar" deb nomlangan?
2. Uglevodlarning barchasi suvda eriydimi?
3. Saxaroza gidrolizlansa faqat glyukoza hosil bo'ladi - deyish to'g'rimi?
4. Glyukozani fruktozadan qanday farqlari bor?

5. Tautomeriya hodisasi nima?
6. Glyukoza bijg'isa faqat etil spirti hosil bo'ladi - deyish to'g'rimi?
7. Organizmda uglevodlar hosil bo'ladimi?
8. Barcha uglevodlarni iste'mol qilish mumkinmi?

va shu kabi savollardan foydalanish talabalarning izlanuvchanligini va fikrlash qobiliyatining oshishini ta'minlaydi. Savollarga javob berish vaqtida talabalar bunday moddalarning "Uglevodlar" deb nomlanishiga qanday ilmiy asoslar borligini, ularning ma'lum turlarga bo'linishini, uglevodlarning tuzilish va fazoviy izomerlari mavjudligini, ularning tuzilishi, kimyoviy xossalari, ishlatilishini bilib oladilar. Bunday darslarda barcha talabalar faol ishtirok etadilar. Dars davomida formulalarning doskada to'g'ri yozilishiga e'tibor qaratilishi ham talabalarga ma'lum darajada ma'suliyat yuklaydi.[3,45]

Dars davomida talabalar faolligini saqlash uchun o'qituvchi - to'g'ri javoblarni qaytarib, boshqalarga ham to'g'ri javobni eshittiradi. To'g'ri javob bergan ishtirokchini rag'batlantish, uning mavzuga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

**Natijada.** Agarda savolga berilgan javob qisman to'g'ri bo'lsa, o'qituvchi javobning to'g'ri qismini ma'qullab, noto'g'ri qismini esa to'g'irlashi yoki ushbu imkoniyatni boshqa ishtirokchiga berishi kerak. Agarda ishtirokchi noto'g'ri javob bersa, tanqidiy bo'lmagan e'tirozini bildirishi yoki savolni boshqacha, ishtirokchini to'g'ri javobga yetaklaydigan tartibda, qo'yishi lozim. Agarda ishtirokchi javob berishga harakat qilmasa, o'qituvchi yuqorida ko'rsatilgan usulni qo'llashi yoki savolni boshqa kishiga qaytib berishi mumkin. To'g'ri javob olinganidan so'ng birinchi ishtirokchiga murojaat qilib, uni muhokamaga tortishi mumkin.[1, 96]

Shuningdek, mashg'ulotni yakunlashda talabalar bilimni tekshirish va baholash katta amaliy ahamiyatga ega. Talabalar bilimni muntazam baholab borish va o'quvchini muntazam ravishda o'z natijalari to'g'risida xabardor qilib turish, uning maqsad sari intilishi va istaklarining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi[2].

Test yordamida talabalarning fandan olgan bilim va ko'nikmalarini tekshirish dasturlashtirilgan ta'lim usullaridan biri hisoblanadi. Testning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'quvchilarning bilim darajasiga va dars mavzusining mazmuniga qarab, testning har xil turlaridan foydalanilganligiga bog'liq bo'ladi. Maruza darslarining yakunida talabalar bilimni baholashda javobi yoziladigan va javobi qo'yiladigan testlardan foydalanish katta amaliy ahamiyatga ega[3].

Javobi yoziladigan testlarda moddaning berilgan nomiga qarab, uning formulasini yozish yoki formulasiga qarab, uning nomini yozish, savol shartiga muvofiq reaksiya tenglamalarini yozish va ularni aksini ifodalovchi savol beriladi. Test topshiriqlarida nuqtalar bilan ko'rsatilgan joylarga javob yoziladi [4]. Masalan:

1. Quyida nomlari keltirilgan moddalarning kimyoviy formulalarini yozing:  
A). Glyukoza - ..... B). Saxaroza - .....  
C). Kraxmal - ..... D). Tsellyuloza - .....
2. Quyidagi moddalarning to'liq yonish reaksiya tenglamalarini yozing:  
A). Glyukoza - ..... B). Saxaroza - .....  
C). Kraxmal - ..... D). Tsellyuloza - .....

Yoki javobi qo'yiladigan testlarni olib qarasaq, test ikki ustunga yoziladi va birinchi ustundagi formula, tushuncha yoki sonlarga mos keluvchi javoblar ikkinchi ustunda berilganlardan topiladi va javobning raqami qo'yiladi. Masalan:

1. Quyidagi nomlari keltirilgan moddalarning formulalarini 2-ustundan topib, belgilang:

- |                 |                         |
|-----------------|-------------------------|
| A). Glyukoza    | 1. $C_{12}H_{22}O_{11}$ |
| B). Saxaroza    | 2. $C_6H_{12}O_6$       |
| C). Kraxmal     | 3. $C_6(H_{10}O_5)_n$   |
| D). Tsellyuloza | 4. $C_6H_7O_2(ON)_3$    |

2. Quyidagi saxaridlarga to'g'ri keladiganlarini tanlang:

- |                   |             |            |                |
|-------------------|-------------|------------|----------------|
| A). Monosaxarid - | 1. Glyukoza | 4. Laktoza | 7. Saxaroza    |
| B). Disaxarid -   | 2. Kraxmal  | 5. Riboza  | 8. Inulin      |
| C). Polisaxarid - | 3. Mal'toza | 6. Ksiloz  | 9. TSellyuloza |

O'qituvchi talabalarga testlarni bajarish tartibini o'rgatgach, test topshiriqlari yozilgan tarqatmali materiallarni tarqatadi va javoblarni belgilash uchun 5-6 daqiqa vaqt beradi. Belgilangan vaqt tugagach o'qituvchi test javoblarini yig'ishtirib oladi va har 7-8 talabani testlarini tekshirish uchun bittadan talabani o'z hohishiga ko'ra nazoratchi sifatida tanlaydi. SHundan so'ng, testning to'g'ri javoblari keltirilgan plakat yoki videoproektor vositasida slaydni talabalar e'tiboriga havola etadi. Berilgan javoblar asosida nazoratchi talaba test javoblarini tekshiradi va testlarni baholash tartibi asosida ball qo'yib, test varaqalarini o'qituvchiga qaytarib beradi. O'qituvchi test natijalarini talabalarga e'lon qiladi.

Demak, darslarda savol-javob usulidan foydalanish natijasida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoni o'quvchilar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-kuvvatlanadi, keng qamrovli mavzular kam bosqichlarni o'tish orqali tahlil qilinadi hamda bu usul o'rganishning faol yo'li bo'lib, o'quvchilarning dastlabki bilimlarini safarbar etishlari uchun yaxshi imkoniyat tug'iladi.

SHuningdek, test usulida talabalar bilimini o'tilgan mavzu bo'yicha baholash, ularni jamlash va umumlashtirish yakuniy baholashning ob'ektiv bo'lishiga, talabani o'z-o'zini baholashga o'rgatishga va qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini aniqlanishiga yordam beradi.

### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli qarori.
2. Bakiyeva X.A. "Uglevodorodlar" mavzusini o'qitishda savol-javoblar usulidan samarali foydalanish. "Intellektual avlod asri" konferensiya materiallari. 2014, 235-237 betlar.
3. X.Bakiyeva, X.Ibroximova. Kimyo fanidan talabalar bilimini baholashda testlarning o'rni. NamMPI, konferensiya materiallari. 5 iyun 2014 yil.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/5 (4) – 2024*

### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

#### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).